O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING BUXORO
VILOYATI BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-06, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Idiyev Islom Ilhom O‘g‘li

2026 - yil 12 - maydagi 280633 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Buxoro shahar Oybek MFY A.Jomiy ko‘chasida "JASUR PLYUS KAMRON" MCHJga "Birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish yuqori qavatlarida turar-joy" binosini rekonstruksiya qilib “Birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish 2, 3, 4, 5 hamda mansarda qavatlarida ko`p xonadonli turar-joy” binosi rekonstrukisya qilish
Buyurtmachi: JASUR PLYUS KAMRON MCHJ
Bosh loyihachi: "BUXARA-ARXPROEKT" xususiy korxonasi
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: Tanlov savdolari natijalariga asosan.
Qurilish turi: Rekonstruksiya
Murojaat raqami: 116353

1. Loyihalash uchun asos.

1.1 O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2026-yil 14-fevraldagi 139/05-15-1-sonli XDFU bayoni.
1.2 Buxoro viloyati hududiy Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan Bino va inshootlar holati bo’yicha 2025-yil 15-yanvardagi 12-sonli texnik hisoboti.
1.3 “Buxoro Neftigaz Montaj” MCHJ tomonidan 2024-yil 130-sonli Bino va inshootlar holati bo’yicha ishlab
chiqilgan texnik hisoboti.
1.4 Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi Yagona Interaktiv Davlat xizmatlari portali orqali 2025-10-10 da 1706-1706401-242216-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig’i.
1.5 Buxoro viloyat qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi Arxitektura-shaharsozlik kengashining 2025-yil 12-sentyabrdagi 58-sonli yig’ilish bayonnomasi.
1.6 Loyiha topshirig’i buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan hamda Buxoro viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi boshlig’i bilan kelishilgan.
1.7 Buyurtmachi "JASUR PLYUS KAMRON" MCHJ hamda “Buxara Arxproekt" XK o’rtasidagi 2026-yil 3-martdagi 07/2026-sonli loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnomasi.
1.8 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi tomonidan 2022-yil 24-noyabrda 050001-sonli Geodezik va kortografiya muhandis-geologik

tadqiqotlar natijalari bo’yicha “GEOIZMERENIYA KLASSIK” MCHJ ga Tasdiqnoma (reyestr raqami X-146295) berilgan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1 Albom. Bosh reja.

2.2 Albom. Arxitektura qurilish bo’limlari, Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta'minlaydigan yechimlar (NBSH).

2.3 Buxoro viloyati hududiy Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan Bino va inshootlar holati bo’yicha texnik holat xulosasi.

2.4 Albom. Ichki elektr ta’minoti, Ichki suv va oqova suv ta’minoti, ichki issiqlik tizimi, yong’indan ogohlantirish video kuzatuv tizimi bilan Noananaviy energiyadan foydalanish quyosh panellari va maxsus spetsifikatsiyalar.

2.5 Muhandislik-geologik xulosa.

2.6 Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1 Qurilish maydonining xususiyatlari. Loyihalangan bino va inshootlarning asosini MGH №1 Kulrang qumoq grunt, nam holatdan suvga to‘yingan holatgacha, qattiq plastik holatdan oquvchan konsistensiyagacha, supes va changsimon qum qatlamchalari bilan. Mexanik xossalari γ1=17.8kH/m3, C=9.0KPa, φ=24°. Elementlarning qalinligi 5.5-6.20 m gacha. Tuproqlarning uglerodli po'latga nisbatan korroziyali agressivligi o’rta. Yer osti suvlarining maksimal balandligi 2.0 m mavjud yer sathidan. Qatlam cho’kuvchanlik turi birinchi tur. Mavsumiy muzlashning maksimal chuqurligi 0,57 m. Qurilish maydonining zilzilabardoshliligi 7 ball. Tuproqlarning zilzilabardoshlilik toifasi uchinchi hisoblanadi. Qurilish maydonining taxminiy zilzilabardoshliligi 8 ballni tashkil etadi.

3.1 Texnologik yechimlar ShNQ 2.08.01-19 "Turarjoy binolari" va ShNQ 2.08.02-03 «Jamoat binolari va inshootlari», talablarini loyihalash bo'yicha tasdiqlangan topshirig’iga muvofiq texnologik yechimlar qabul qilindi va Buxoro viloyati hududiy Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan Bino va inshootlar holati bo’yicha 2025-yil 15-yanvardagi 12-sonli texnik hisoboti.

3.2 Hudud. "Birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish yuqori qavatlarida turar-joy" binosini rekonstruksiya qilib “Birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish 2, 3, 4, 5 hamda
mansarda qavatlarida ko`p xonadonli turar-joy” binosi sifatida qurilishi loyihalashtirilayotgan umumiy maydoni 180.0 kv.metrdan iborat obekt Buxoro shahar Oybek MFY A.Jomiy ko‘chasida joylashgan.

3.3 Bosh reja. Ob'yektning umumiy bosh rejasi amaldagi me'yorlarga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan. Loyihada qiyalik yaratish va mavjud relyef hududdan yomg'ir suvini oqishi va yashil maydonlarni sug'orish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilindi.
Hududni obodonlashtirish loyihasi, transport aloqasi qulayligi va o't o'chirish mashinalarining binolarga kirishi uchun qattiq sirtli yo'llar va maydonlarni joylashtirish sharti bilan ishlab chiqilgan. Loyihalashtirish uchun ruxsat berilgan umumiy 180.0 kv.metr yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan —ko`p
qavatli turar-joy binosi bilan; Janub tomondan — ichki yo`l bilan; Sharq tomondan — masofa orqali avtomobil yo`li bilan; G‘arb tomondan — ichki yo`l bilan chegaralangan.

Loyihada quyidagilar rejalashtirilgan: Ko’p xonadonli turar-joy binosi, bolalar maydonchasi qurish, avtoturargoh, chiqindi tashlash joyi, yong’inga qarshi gidrant o’rnatish rejalashtirilgan shuningdek Qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan 2026-03-04 dagi 262969631-sonli xulosasi berilgan

Texnik iqtisodiy ko’rsatgichlar.

Umumiy chegaraviy maydoni - 180.0m2

Qurilish maydoni - 180.0m2

Yo’l va yo’laklar (Qizil chiziqdan tashqari) - 611.89 m2

Obodonlashtirish maydoni (Qizil chiziqdan tashqari) – 107.98 m2

Bolalar maydonchasi (Qizil chiziqdan tashqari) – 70.0m2

3.4 Loyihada quyidagilar ta'minlanadi:

Arxitektura va qurilish yechimlari:

Poydevorning yer ustki qismi (Sokol) – penapleks qoplam bilan qoplash “katta o’lchamli plitkalar ” qoplamasi bilan qoplash.

Devorlar – fasad to'rlarida bazalt asosidagi izolyatsiyalash bilan dekorativ travirtin qoplama bilan qoplash.

Mazkur ko‘p qavatli turar-joy binosining qurilish ishlari 2018-yilda tasdiqlangan loyiha yechimlari asosida boshlangan. Bino 5+1 qavatdan iborat bo‘lib, yerto‘la hamda mansard qismlariga ega. Binoning yerto‘la balandligi 2,90 m, qavatlar balandligi 3,00 m, mansard qismining ichki
balandligi 2,70 m ni tashkil qiladi.

Bino tosh-g‘ishtli konstruksiyada, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurilgan bo‘lib, geometrik o‘lchamlari o‘qlari
bo‘yicha 15,00×12,00 m ni tashkil etadi. 2-qavatdan binoning old, yon va orqa tomonlarida 1200 mm
kenglikda konsol qismi mavjud.

Sokol (yerto’la) qisimda – zinalar, nasos uchun xona, lift shaxtasi, texnik xonalar va omborxonalar joylashtirilgan .

Birinchi qavat – yo’laklar va savdo va maishiy xizmat ko’rsatish xonalari joylashgan.

Ikkinchi va beshinchi qavat – zinalar, yo’laklar, hojatxona va yuvinish xonasi, oshxona, umumiy xonalardan iborat xonadonlar joylashgan.

Besh+1 (mansard qavat) zinalar, yo’laklar, hojatxona va yuvinish xonasi, oshxona, umumiy xonalardan iborat xonadonlar joylashgan.

Poydevorning yer ustki qismi (Sokol) – penapleks qoplam bilan qoplash “katta o’lchamli keramik plitkalar” qoplamasi bilan qoplash.

Devorlar – fasad to'rlarida bazalt asosidagi izolyatsiyalash bilan dekorativ travirtin qoplama bilan qoplash.

Konstruktiv yechimlar:

Seysmik yuklarni qabul qiluvchi devorlari ishtirok etmaydigan monolit temir-beton to’sin, ustun va monolit temir-beton qoplamali yechim. Binoning fazoviy qat'iyligi monolit temir-beton rama va monolit orayopma hamda temir-beton plitali tomyopma bilan ta'minlanadi QMQ 2.01.03-2019, 3.1- jadval asos.

Poydevorlar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton poydevor plita B20 sinfidagi betondan yasalgan monolitik temir-beton devorlar va ustunlar B20.

Rama (Ustunlar va to’sinlar) – B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Devorlari – GOST 530-80 M50 markali qorishma bilan M75 g'ishtdan qilingan, monolitik temir-beton serdechniklar o'rnatilgan.

Xonalarni bo’luvchi pardevorlar – GOST 530-80 M50 markali qorishma bilan M75 g'ishtdan qilingan metal burchaklar bilan kuchaytirilgan.

Tom yopma va orayopma – B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-betonlardan maydonlar hamda zavodda ishlab chiqarilgan temir-beton plitalar o’rnatish

rejalashtirilgan.
Tom qoplamasi (mansard)– yog’och konstruksiya orasida ikki tomonlama himoya qobig’li sovuqdan himoya qatlam ustida reyka va polimer qatlamli profnastil bilan qoplash ko’zda tutilgan.
Zinapoyalar – B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-betonlardan zinalar va zavodda ishlab chiqarilgan zinalar rejalashtirilgan.
Buyurtmachining topshirig'iga asosan 5+1 qavatli turar-joy binolari qurilishi ob’yekti loyihasi “Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022yil.) qarorning 3-so’z boshiga keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarni (xonalarga bo’lingan va pardozlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan.
Eshik romlari - metal va MDF eshik romlaridan ichki MDF eshik romlari smeta hisobiga hisobga olinmagan.
Pol qoplamasi, beton asosli laminat va keramik plitkalar pollar tarkibi faqatgina beton asosdan tashqari qatlam hisobga olinmagan.
Deraza romlari – ikki qavat oynalar bilan qoplangan metall-plastmassa profillardan, deraza tokchalari pvxdan.
Ichki pardozlash – devorlarni yaxshilangan suvoq bilan suvoqlash va suvli emultsiya bilan bo'yash shift choklarini to'ldirish va suvli bo'yoq bilan bo'yash suvoq qatlamdan tashqari bezak berish ishlari hisobga olinmagan.
Korroziyadan himoya qilish. Binoning poydevori ostida gidroizolyatsiya qalinligi 30 mm qalinlikdagi sementli qorishma bilan tekislash, gruntni bostirish 1200 mm shag’al qatlam yoyish va ustidan 100mm beton qatlam bilan qoplash orasida TPP polizol qatlam yoyish, poydevor devorlari yon sirtlari bir marta TPP polizol qatlam yopishtirish ko’zda tutilgan .
Yer osti inshootlari uchun GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida normal o'tkazuvchanlik betoni qabul qilingan.
Texnik iqtisodiy ko’rsatgichlari:
Umumiy maydoni (yerto’la bilan birga) – 1289.02m
Qurilish hajmi – 3800.104m
Qurilish maydoni – 180.0m
Xonadonlarni umumiy maydoni – 963.29m
Savdo do’konlar umumiy maydoni – 162.33m
Yerto’la maydoni – 163.4 m
Jami 15 ta xonadondan iborat.
3.5. Energiya samaradorlik ishlari bajarilmagan.
Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:
–devorda termoizolyatsiyasi zichligi γ=120 kg/m3, qalinligi 80 mm bo‘lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
–tomyopma termoizolyatsiyasi zichligi γ=140kg/m3, qalinligi 150 mm bo‘lgan bazalt plitalardan tom termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
–tomda quyosh panellari va quyosh suv isitish bolleri o’rnatish ko’zda tutilgan.
–FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va boshqalar.
–yoritish svetodiodli sensorli datchikli chiroqlar orqali bajarilgan va boshqalar.
3.6 Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta'minlaydigan yechimlar.

Loyihada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo’lgan shaxslarga qulay va to’siqlarsiz muhit yaratish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ266-son qaroriga muvofiq zinalarda panduslar o’rnatish, zaif ko’ruvchilar uchun yo’laklarda va eshik atrofida kontrast ranglar bilan ajratilgan va eshiklarni ostonasiz o’rnatish, taktil qoplama o’rnatish, ko’tarma qurilma o’rnatilishi shart.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Buyurtmachining loyiha topshirig’i hamda xatiga asosan tashqi komunikatsiya tizimlari alohida bosqichda amalga oshirilishi ko’rsatilgan.

Tashqi suv va oqova ta’minoti – Buxoro viloyat “Suv ta’minoti” MCHJ Buxoro shahar filiali 2020-yil 02-oktyabrdagi 1529-son texnik shartiga asosan: Ichimlik suv quvuriga ulanish nuqtasi A.Jomiy ko’chasidan o’tuvchi ichimlik suv tarmog’ining mavjud qudug’ining po’lat qismidan ulash tavsiya etilgan. Quvur d-300mm, materiali cho’yan, chuqurligi 1.3, bosim 1.0atm.

Oqava suv tizimiga ulanish nuqtasi A. Jomiy (Alpomish ko’chasi yo’l yoqasidan) o’tgan oqava tizimining mavjud qudug’iga ulash tavsiya qilingan. Quvur D-1000mm, materiali temir-beton, chuqurligi 3,0m.

Ichki sovuq suv ta’minoti - Quvurlar o’rnatish, qo’shimcha elementlar o’rnatish, nasos o’rnatish, kranlar o’rnatish, vintellar o’rnatish, metal g’ilof o’rnatish suv o’lchash uzeli o’rnatish ishlari ko’zda tutilgan. Xonadonlar ichki sovuq suvning asosiy tarmog’i va hisoblagichdan keyingi o’rnatiladigan jihozlari o’rnatish smetada ko’zda tutilgan.

Ichki issiq suv ta’minoti – Quyosh suv isitish bollerlari o’rnatish, elektr suv isitish elementlari o’rnatish, quvurlar o’rnatish, qo’shimcha jihozlar o’rnatish, rele o’rnatish, filtrlar o’rnatish. Xonadonlar ichki issiq suv tarmog’lari, elektr suv isitish elementlari, qo’shimcha jihozlar o’rnatilishi smetada ko’zda tutilmagan.

Oqova suv ta’minoti – Quvurlar o’rnatish, quvurlarga qo’shimcha elementlar o’rnatish, trap o’rnatish, tekshiruv quvurlari o’rnatish, yuvinish jihozlari o’rnatish, chasha, unitaz o’rnatish, bide o’rnatish santexnika anjomlar o’rnatish, tashqi oqova suvlar uchun polietlen quvurlar va temir beton halqali quvurlar orqali ulanish ko’zda tutilgan. Xonadonlar ichki asosiy oqova suv tarmog’laridan tashqari barcha qo’shimcha elementlari yani trap, yuvinish jihozlari, unitaz, santexnika anjomlar o’rnatilishi smetada ko’zda tutilmagan.

Ichki isitish tizimi – alyumin radiatorlar o’rnatish, ichki polipropilen quvurlar o’rnatish, tashqi metal quvurlar o’rnatish, quvurlar uchun qo’shimcha elementlar o’rnatish, metall g’ilof o’rnatish, suv hisoblagich o’rnatish, moyli bo’yoq bilan bo’yash va markaziy quriladigan qozonga ulanish ishlari rejalashtirilgan. Xonadonlar ichki asosiy isitish tarmog’idagi biometal radiatorlar smetada ko’zda tutilmagan.

Gaz ta’minoti - Gaz ta’minoti - "Hududgaz Buxoro” GTFning 2020-yil 21-sentyabrdagi 02-22-230/669-sonli texnik shartiga asosan shartiga asosan gaz quvuriga ulanish nuqtasi Buxoro shahar A.Jomiy ko’chasida mavjud o’rta bosimli gaz quvuridan, yer usti, D-57mm.

Tashqi elektr ta’minoti – “HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ “Buxoro HETK” ning 2020-yil 30-sentyabrdagi 32-12/1114–sonli texnik shartiga asosan Obyektning elektr yuklamalari markazida 6/0,4 kV transformator punkti (TP) o‘rnatilsin. “Janubiy” 35/6 kV podstansiyasidan chiquvchi “5-kichik tuman-1” 6 kV fideri bo‘yicha 350-raqamli transformator punktining yuqori kuchlanish yacheykasidan o‘rnatiladigan TPgacha 6 kV elektr uzatish tarmog‘i qurilsin. “Olotxona” 110/6 kV podstansiyasidan chiquvchi “Qozonxona 3-1” 6 kV fideri bo‘yicha 609-raqamli transformator punktining yuqori kuchlanish yacheykasidan o‘rnatiladigan TPgacha 6 kV elektr uzatish tarmog‘i qurish

ishlari ko’zda tutilgan.

Ichki elektr yoritish. Binolarni elektr yoritish QMQ 2.01.05-24 va QMQ 2.04.17-19 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Kirish moslamasi sifatida shkaflar o’rnatish va taqsimlash shkaflari, boshqaruv shkaflari, Avtomatik kalitlarga ega elektron hisoblagichlar, yoritgichlar, o’chirib yoqgich, har bir xonada yorug'lik chiroqlar, rozetkalar, energiyani tejaydigan lampalar bilan yoritish moslamalari taqdim etiladi. Loyihada elektr qo'ng'iroqlarni o'rnatish, elektr tokini yerga ulash ko'zda tutilgan, shuningdek tomda quyosh elektr energiyasi ishlab chiqadigan panellar o'rnatish, videokuzatuv tizimi va yong’indan ogohlantirish tizimlarini o'rnatish ko’zda tutilgan buyurtmaching kafolt xatiga asosan bino qurib bo’lingan hamda damafon qurilmasi o’rnatish ishlari amalga oshirilgan. Xonadonlar ichki yoritgichlar, o’chirib yoqgich, har bir xonada yorug'lik chiroqlar, rozetkalar, energiyani tejaydigan lampalar o’rnatish ko’zda tutilgan va tomda chaqmoqga qarshi yerga ulash ishlari bajarilgan tutilgan.

Yong’indan ogohlantirish va signal berish – signal qabul qiluvchi konnektor o’rnatish, boshqaruv bloklar o’rnatish, signal beruvchi jihozlar o’rnatish, qo’l bilan o’chirish uskunasi, tovush ko’targich jihozlari o’rnatish, yong’indan ogohlantirish jihozlar o’rnatish va kuzatuv kameralar o’rnatish, elektr taqsimlovchi quti o’rnatish, yoritgichlar o’rnatish, rozetkalar o’rnatish, manitor o’rnatish, qo’shimcha jihozlar o’rnatish ko’zda tutilgan.

Yong'inga qarshi choralar. Loyihalashtirilgan bino va inshootlarning yong'inga chidamlilik darajasi II. Loyiha odamlarni favqulodda chiqishlar orqali xavfsiz evakuatsiya qilishni nazarda tutadi. Barcha yog'och konstruktiv elementlar antiseptiklar bilan singdirilgan va olovni to'xtatuvchi moddalar bilan ishlov berilgan, qochish yo'llaridagi devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan yasalgan, qochish yo'llarining eshiklari chiqish tomon ochiladigan eshiklar bilan ta'minlangan. Binolar orasidagi yong'inga qarshi tanaffuslar sanitariya me'yorlarini hisobga olgan holda ta'minlanadi, o't o'chirish mashinalarining binolarga kirishi ta'minlanadi va o't o'chirish uchun kelgusida gidrantlar o’rnatish rejalashtirilgan.

Smeta hujjatlari. Ko’rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlari "ShNQ" smeta resurs normalari to’plamlari bo’yicha resurs usuli yordamida joriy narxlarda tuzilgan. Smeta hujjatlari doirasida quyidagilar taqdim etiladi: lokal resurslar qaydnomasi, zarur resurslar ro’yxati, joriy narxlarda ob’ektning tavsiya etilgan narxini hisob-kitobi. Ob’ektning tavsiya etilgan narxi, qurilish ishchilarining o’rtacha oylik ish haqi, pudratchining "boshqa xarajatlari" ulushi, qurilish materiallari va uskunalari narxlari, mashinalarni va mexanizmlarini ekspluatatsiyasi, qurilish mahsulotlari uchun transport xarajatlari miqdori buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan 2026 dagi 02/16 sonli ma’lumotlarga narxnomaga asosan qabul qilindi. Tavakkalchilik koeffisienti qabul qilinmasin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha ko'rib chiqildi va tasdiqlandi: Izohlarsiz buyurtmachi bilan barcha hajmlar kelishilgan.

Loyiha Buxoro viloyati hokimligi huzuridagi arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi shaharsozlik kengashi yig‘ilishi bayonnomasida ko‘rib chiqilib kelishilgan.

Hududiy yong‘inga qarshi nazorat xizmati tomonidan loyiha ko’rib chiqilib kelishilgan.

Hududiy sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan loyiha ko’rib chiqilib kelishilgan.

Loyihada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ-161-sonli qarori bo'yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi. (Buyurtmachining 2026-yil 7-maydagi tasdiqlangan kafolat xati).

Davlat ekologik ekspertizasining 2025-yil 22-oktabrdagi 01-02/15-3751-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **3 520 837 484** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **72 288 987** so'mga kamaytirilib,

3 448 548 497 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **3 079 061 158** so'm

QQS: **369 487 339** so'm

Mazkur ob’yekt buyurtmachining o'z mablag'lari hisobiga qurilayotganligi sababli, smeta qismi qurilishning sifatsiz bajarilishiga yoki byudjet mablag'lariga zarar yetishiga olib kelmaydi.

Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalari bo‘yicha ish tartibida loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritilishi talabi qoyilgan.

- Smeta me’yorlari qabul qilingan loyihaviy qarorlarga muvofiqlashtirildi.
- Harakati cheklanagan va ko’zi ojizlar uchun qo’shimcha NBSH albomi ishlab chiqilishi shart.
- Loyihaning qabul qilingan qarorlariga muvofiq ish hajmlari to'g'rilandi.
- Loyiha yechimlarida konstruktiv yechim qayta ko’rib chiqildi konstruktiv yechim qurilish jarayonida o’zgartirilgan taqdirda berilgan ijobiy xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

Buyurtmachi va loyihachi tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha va loyiha oldi hujjatlariga o‘zgartirish kiritish talabi qo‘yilgan.

Loyihachi ishchi loyiha hujjatlarni buyurtmachiga lakal xulosalarida ko‘rsatilgan sharhlar bo‘yicha to‘g‘rilab tasdiqlangan holda taqdim etishi lozimligi qayd etiladi.

Ishchi loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘g‘rilanmasdan topshirilganda mazkur xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida nazorat qilish inspektsiyasining binoni texnik holati bo’yicha xulosasiga asosan- binoning zilzilabardoshlik va seysmik kuchlar ta’siriga uch o’lchamli elektron hisoblar asosida tekshirish va natijalar salbiy bo’lgan holda binoda tasdiqlangan loyiha yechimlari asosida kuchaytirish chora tadbirlarini bajarish talab etilishi ko’rsatib o’tilgan.

“Buxoro Neftegaz Montaj” MChJ ning binoni texnik holati bo’yicha xulosasi va elektron hisobotga asosan yer to’la qavati, 1-qavat “A” o’qda (KK13, KK14, KK22), 1, 2, 3-qavat “B” o’qda(KK9, KK10), yer to’la qavati, 1, 2-qavat “V”(KK8, KK21, KK23, KK26, KK28, KK30) o’qlardagi ustunlarda armaturalar yetarlicha emasligi ko’rsatib o’tilgan.

Buxoro Neftegaz Montaj MChJ ning binoni texnik holati bo’yicha xulosasi va elektron hisobotga asosan yer
to’la qavati “B”, “V”, “4”, “5” o’qdagi to’sinlarda, 1-qavat “V”, “1”, “4”, “5”, “8” o’qdagi to’sinlarda, 2-qavat “B”, “V” o’qdagi to’sinlarda armaturalar yetarlicha emasligi ko’rsatib o’tilgan.

Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma‘lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

Loyihasi kelgusida “Buxoro Neftigaz Montaj” MCHJ hamda Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal
xo’jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan berilgan texnik holat xulosasiga asosan kuchaytirish
ishlari amalga oshirilishga shart.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga, 2016-yil 22-yanvardagi 15-sonli qarorining 4-ilova, II-bob 8-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi”ga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) javobgar.

Ushbu Yig’ma ekspert xulosasi taqdim qilinganligi munosabati bilan 2026-yil 4-martdagi 2026/2-sonli yig'ma ekspert xulosasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin (asos: Buyurtmachining 2026-yil 13- martdagi 116353-sonli murojaati).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilovasi 5-bob 36-bandi bo’yicha mazkur ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2-yil.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **«Buxoro shahar Oybek MFY A.Jomiy ko‘chasida "JASUR PLYUS KAMRON" MCHJga "Birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish yuqori qavatlarida turar-joy" binosini rekonstruksiya qilib “Birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish 2, 3, 4, 5 hamda mansarda qavatlarida ko`p xonadonli turar-joy” binosi rekonstrukisya qilish»**

ishchi loyihasi kelgusida “Buxoro Neftigaz Montaj” MCHJ hamda Buxoro viloyati hududiy Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan Bino va inshootlar holati bo’yicha xulosasiga asosan ishchi loyihasi kelgusida ko’rib chiqib tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Turdiyev Xalik Muzafarovich, Pondina Natalya Rafikovna, Viryaskina Zoya Petrovna, Muxammedov Timur Furkatovich, Idiyev Islom Ilhom O‘g‘li, Kashapova Nadiya Muxtarovna, Djurayev Muxammadjon Akobirovich

Bosh ekspert **IDIYEV ISLOM ILHOM O‘G‘LI**